

## TALABALARDA INTERNET TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK XUSUSIYATLARI

*Sherqo‘ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi*

*FarDU 2-kurs talabasi*

*Muhammadjonova O‘g’iloy Bahodirjon qizi*

*FarDU 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, internet texnologiyalari haqida ma’lumot hamda internet texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy xususiyatlari, shuningdek, internet texnologiyalarining foydali xususiyatlari va metod usullari haqida ma’lumotlar berilib o’tilib, talaba yoshlarning bu texnologiyalardan foydalanishning afzallik xususiyatlari haqida keng ma’lumotlar berilib o’tilgan.

**Kalit so‘zlar:** jahon miqyosi, dolzarb, axbarot texnologiyalari, axbarot tarmog’I, ta’lim va tarbiya

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об Интернет-технологиях и современных особенностях использования Интернет-технологий, а также информация о полезных функциях и методах Интернет-технологий, а также представлена обширная информация о преимуществах использования этих технологий для студентов.

**Ключевые слова:** глобальные, современные, информационные технологии, информационная сеть, образование и обучение.

**Abstract:** This article provides information about Internet technologies and modern features of using Internet technologies, as well as information about useful features and methods of Internet technologies, and provides extensive information about the advantages of using these technologies for students. .

**Key words:** global, current, information technologies, information network, education and training

### KIRISH

Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha soalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta’lim maktablari ta’lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog’i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat’iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi axborot texnologiyalarining umumiyligi ta’lim maktablari ta’lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo‘l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va

kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o‘stirishda tutayotgan o‘rni va ta’siri ortib borayotganligini inkor etib bo‘lmaydi.

Axborot texnologiyalari bir yo‘la bir necha fan sohalariga informatika, matematika, kibernetika, psixologiya, pedagogika kabi fanlarga oid ma’lumotlarni birlashtiradi. Biroq bu uyg’unlikda psixologikpedagogik asos yetakchi o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘qitish jarayoniga joriy qilish muhim o‘rin egallaydi. Yangi axborot texnologiyalari o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun katta ahamiyatga ega. Odatdagи ta’limiy texnologiyalardan farqli ravishda, axborot texnologiyalarida mehnat predmeti va uning natijasi sifatida axborot, mehnat quroli bo‘lib esa axborotlashtirishning texnikaviy vositalari xizmat qiladi.

Kompyuter vositalari o‘quv-tarbiya jarayonining turli bosqichlarida:

- o‘quvchilarga o‘quv materiallarini taqdim etish bosqichida;
- kompyuter bilan interfaol o‘zaro birgalashib, harakat qilish jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishda;
- o‘zlashtirilgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarini takrorlash va mustahkamlashda;
- o‘qitishda erishilgan natijalarni oraliq va yakuniy nazorat qilish va o‘zo‘zini nazorat qilish bosqichida;
- o‘quv materialini qismlarga bo‘lish, uni klassifikatsiyalash va tizimlashtirishni takomillashtirish orqali o‘qitish jarayoniga va uning natijalariga tuzatishlar kiritish bosqichida foydalanishi mumkin.

Oqilona tuzilgan kompyuterli o‘qitish dasturlari axborotni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishining psixologik va pedagogik qoidalari e’tiborga olingan taqdirda o‘qitishni individuallashtirish va differensiyalashtirishga, bolalarning qiziqishlari va o‘qishdagi mustaqil faoliyatini rag’batlantirishga imkon beradi. Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Talabalar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallah va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo’llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan uchinchi avlodning yangi davlat ta’lim standartlarini (FSES HPE) joriy etish talabaning tobora faol ishtirok etishi asosida bir qator fanlarni, shu jumladan sotsiologiyani o‘qitish uslublarida sezilarli o‘zgarishlarni nazarda tutadi. ta’lim jarayonining to‘liq ishtirokchisi, uning katta mustaqilligi, aniq amaliy natijaga qaratilgan mashg’ulotlar. Axborot texnologiyalarining asbob-uskuna va dasturiy vositalarining juda jadallik bilan rivojlanib borishi, masalan, yangi avlod kompyuterlarining, yangi dasturlarining chiqishi, turli ta’limiy vazifalarni hal etish qulay texnikafiy imkoniyatlar ochib beradi. Biroq ilmiy izlanishlar o‘quv maqsadida

foydalaniladigan axborot tizimlari o‘z didaktik sifatlariga ko‘ra hali ham qoniqarsiz darajada ekanligini ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, axborot texnologiyalarini o‘qitish maqsadlarida foydalanishning metodik (pedagogik) vositalari axborotlashtirishning texnikaviy vositalari rivojlanishidan ancha orqada qolib ketyapti. Kompyuterning imkoniyatlari juda katta, biroq pedagogik maqsadlarda u yetarli darajada foydalanilmayapti.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘qitish maqsadidagi axborot uni loyihalashtirish bosqichida kiritiladi. Xususan, axborot — avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlarining ma’lumotlar bazasini yaratishda, elektron darsliklarni tuzish uchun o‘quv materialini tayyorlashda, modellashtiriuvchi turdagи kompyuter tizimlari bilan o‘quv ishlarining ssenariylarini, masalalar va mashqlar, test topshiriqlari tuzishda kiritiladi. Axborot texnologiyalari bir yo‘la bir necha fan sohalariga informatika, matematika, kibernetika, psixologiya, pedagogika kabi fanlarga oid ma’lumotlarni birlashtiradi. Biroq bu uyg'unlikda psixologikpedagogik asos yetakchi o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘qitish jarayoniga joriy qilish muhim o‘rin egallaydi. Yangi axborot texnologiyalari o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun katta ahamiyatga ega. Odatdagи ta’limiy texnologiyalardan farqli ravishda, axborot texnologiyalarida mehnat 4 predmeti va uning natijasi sifatida axborot, mehnat quroli bo‘lib esa axborotlashtirishning texnikaviy vositalari xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog‘i orqali masofadan turib, onlayn yoki oflayn o‘qish imkoniyatlarining paydo bo‘lishi, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarga juda katta imkoniyat bermoqda. Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab elektron ta’lim olish imkonini beruvchi juda ko‘plab elektron ta’lim platformalari faoliyat yuritmoqda. Elektron usulda ta’lim olishning eng afzal tomoni ta’lim oluvchi ayrim sabab bilan darsda qatnasha olmasa yoki darsni yaxshi o‘zlashtira olmasa, platformaga kirib, video-ma’ruzalardan qayta-qayta foydalanishi mumkin. Bu esa ta’lim olish samaradorligini sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ladi.

### NATIJA VA MUHOKAMALAR

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta’lim tizimida fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga e’tibor qaratish, ta’lim jarayoniga elektron ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, masofaviy ta’limni qo‘llabquvvatlash zarur. Axborot madaniyatining zaminini yaratish esa informatika fani predmetini tashkil etadi va uni o‘rganish davomida texnik, dasturiy va algoritmlash vositalarining imkoniyatlarini o‘rganish mobaynida nazariy bilimlar hamda tegishli soha masalalarini mukammal shakllanririshdan iborat. Bugungi zamonaviy kompyuterlar bilan ishslash usullarini o‘rganish jarayonida talabaning dastlabki tasavvuriga kelmagan imkoniyatlar ochiladi.

Zamonaviy kompyuterlar amalda hamma 24 narsani bajarishi mumkin, lekin buning uchun foydalanuvchining o‘zi nimani istayotganligini aniq bilishi va eng muhimi kompyuterga buni qanday bajarish kerakligini tushuntirib bera olishi shart. O‘z navbatida, kompyuterga nimanidir tushuntirish uchun esa unga axborotni kiritish lozim. Chunki, axborot - informatika va axborot texnologiyasi sohasining asosiy resursidir. Axborot - bu o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan ixtiyoriy ajratuvchi, farqlovchi, tabaqlashtiruvchi belgidir. Yoki boshqacha qilib umumlash-tirib aytganda, axborot - bu biror faoliyat to‘g’risidagi xabarlar majmuidir. Shuningdek, o‘z navbatida , informatikada axborot bilan bir qatorda ma’lumot tushunchalari ham keng qo‘llaniladi. Ma’lumotlarga u yoki bu sabablarga ko‘ra foydalanilmaydigan, balki, faqat saqlanadigan belgilar yoki yozib olingan kuzatuvlar sifatida qarash mumkin. Agar bu ma’lumotlarda biror nasra to‘g’risidagi mavhumlikni (noaniqlikni) kamaytirish uchun fodlanish imkoniyati tug’ilsa, u holda ma’lumotlar axborotga aylanadi, deyish mumkin. Hozirda insoniyat harakat va raqobat orqali turmush tarzini rivojlantiradi va yangiyangi kashfiyotlarning yaratilishiga asos bo‘ladi. Bu kashfiyotlarning biri - kompyuter texnikasidir. Azaldan insoniyat o‘z ishini osonlashtirish va vaqt ni tejash muammolari bilan shug’ullangan. So‘zsiz aytish mumkinki, kompyuter XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘ldi. Davr talabiga ko‘ra bugunga kelib kopmyuter texnikasi juda rivojlanib ketdi. Ma’lumotlarni yig’ish, boshqarish , qayta ishslash va uzatish ayniqsa, hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamalakarlarning hozirgi kunda eng zamonaviy va ixcham texnologiyalaridan foydalanishga bo‘lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Chunki butun dunyo XXI asr - axborot asri deb tan olgандир. Axborot asrida katta hajmda-gi ma’lumotlar ombori va axborotlar ustida ishslashga to‘g’ri kelinmoqda. Jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga, kunlik ehtiyojga kerakli vositalr yuz berayotgan jadal o‘zgarishlar 25 ularning bir qismi bo‘lgan informatika hamda axborot texnologiyalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi das-turiy va texnik ta’midotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda . Bu ta’sirlar shunchalik kuchlik, yillar ichida emas, balki oylar ichida o‘zgarib va boyib bormoqda. Axborot texnologiyalari va uning texnik, dasturiy ta’moti yangi variantlarining paydo bo‘lishi bu sohadagi xizmat qilish usulini tubdan o‘zgartirishni talab etadi. Shuningdek, axborot texnologiyasi haqida bilish talabalarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Uning asosini tashkil etuvchi axborot ham neft, gaz, foydali qazilmalar kabi an’anviy moddiy zaxira turlari kabi jamiyatning qimmatli zaxiralaridan biridir, demak, uni qayta ishslash jarayonini moddiy zaxiralarni qayta ishslash jarayonlari bilan qiyoslanganda texnologiya sifatida qabul qilish mumkin.

Aholi malakaviy darajasi tabiiy holda mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida, shuning bilan birga demokratik jamiyatning shakllanishida, millatning ijtimoiyma`naviy kamol topishida muhim rol o`ynaydi. Talabaning bilim saviyasi,

fanni nechog`li o`zlashtirganligi esa, uning bajargan mustaqil topshiriqlarida o`z ifodasini topadi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, kurs ishlaridan asosiy maqsad: ta`lim bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni 27 muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo`llashdan iborat. Kurs ishlarining talaba uchun ahamiyatli tomoni shundaki: ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan masalaning qo`yilish jarayonidan boshlab uni to`la nihoyasiga yetkazish bo`yicha qaror qabul qilishda bo`lgan mas`uliyatni his etishga o`rgatish, zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta`minlashga imkon beradi. Kurs ishini bajarishda talaba o`z imkoniyatidan kelib chiqib, o`zi xohlagan tarzda dasturlar bog`lamini tuzishi mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni ta`kidlaymizki, innovatsion ta`lim texnologiyalarini joriy etish nuqtai nazaridan o`qituvchilarining o`z motivatsiyasining yo`qligi, bizning fikrimizcha, nafaqat eng halokatli omil, balki o`zgartirishning eng qiyin omilidir. Vaqt yetishmasligi muammosini o`qituvchilarining sinf va darsdan tashqari yuklamalarini teng taqsimlash yo`li bilan hal qilish mumkin bo`lsa, o`qitishning innovatsion texnologiyalarini qo`llash bo`yicha bilimlarning etishmasligi sotsiologiya fanini o`qitish metodikasi sohasidagi malakani oshirish orqali qoplanishi mumkin. innovatsion ta`lim texnologiyalarini joriy etish (ayniqsa, bizning tadqiqtimiz natijalariga ko`ra, respondentlarning 100 foizi ushbu yo`nalishda malaka oshirish kurslarini o`tashning maqsadga muvofiqligi va istagi haqida gapirganligi sababli) va hatto eng passiv talaba auditoriyasi ham qiziqarli taqdimot bilan. kelajakdagi ixtisoslikka yaqin bo`lgan material, faol bo`lmasa-da, lekin o`rganish bilan amalgalashirish mumkin, keyin faqat ma`muriy qaror bilan o`qituvchilarining motivatsiyasini oshirish mumkin bo`lmaydi. Binobarin, universitet ma`muriy-boshqaruv apparatining barcha sa`y-harakatlari nafaqat professor-o`qituvchilar mehnatini rag`batlantirish, balki o`qituvchilarining o`z-o`zini takomillashtirish va o`z-o`zini anglashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish orqali ushbu omilni tenglashtirishga qaratilishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta`limi sohasidagi ilmiytadqiqot faoliyatini qo`llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-4963-sun qarori <https://lex.uz/docs/-5239538>.
2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil yanvardagi “Xalq ta`limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to`g`risida”gi 25-sun qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5828765?ONDATE=18.01.2022%2000>.

3. Маннанова Н.Х. Ўзбекистонда педагог кадрлар малакасини ошириш тизимида масофавий таълимнинг шаклланиши ва ривожланиши. (Phd). ...дис. – Тошкент, 2019. – 143 б.
4. Alkarov E.M. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzlusiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish. (PhD)... diss. – Toshkent, 2021. – 140 b.
5. Sheraliyev O.Sh. Masofaviy ta’lim tizimida tinglovchilar bilim darajasini nazorat qilishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish metodikasi. (magistr)... diss. – Qo‘qon, 2021. – 82 b.